Boymurodov Zoxid Shokirovich (Qarshi davlat universiteti "Falsafa va sotsiologiya" kafedrasi dotsenti, PhD; zoxidboymurodov26@gmail.com)

ZAMONAVIY OMMAVIY MADANIYAT: SHAKLLANISH OMILLARI VA MILLIY TURMUSH TARZIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ommaviy madaniyatning shakllanish omillari, uning milliy turmush tarziga ta'siri va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy roli tahlil qilinadi. Ommaviy madaniyat texnologik rivojlanish, urbanizatsiya, global kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi hamda iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq tarzda rivojlanadi. Tadqiqotda ommaviy madaniyatning yoshlar, o'rta sinf va keng omma ongiga ta'siri, estetik did, individualizm, iste'molchilik hamda milliy qadriyatlar bilan bog'liqligi o'rganiladi. Shuningdek, ommaviy madaniyatning salbiy va ijobiy jihatlari, uning intellektual va ma'naviy rivojlanishga ta'siri muhokama qilinadi. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ommaviy madaniyat jamiyatda yangi turmush qadriyatlarini shakllantirish bilan birga, milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlash va estetik tafakkur rivojini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar*: ommaviy madaniyat, zamonaviy jamiyat, milliy turmush tarzi, urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot, yoshlar ongiga ta'sir, estetik did, individualizm, ijtimoiy qadriyatlar, global kommunikatsiya.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В данной статье будут проанализированы факторы формирования современной массовой культуры, ее влияние на национальный образ жизни и социокультурную роль в обществе. В исследовании изучается влияние популярной культуры на сознание молодежи, среднего класса и широкой общественности, а также ее связь с эстетическим вкусом, индивидуализмом, потреблением и национальными ценностями. Также обсуждаются негативные и позитивные аспекты массовой культуры, ее влияние на интеллектуальное и духовное развитие. Результаты статьи показывают, что современная массовая культура, наряду с формированием новых жизненных ценностей в обществе, играет важную роль в сохранении самобытности национальной культуры и поддержке развития эстетического мышления. Культура, наряду с формированием новых жизненных ценностей в обществе, играет важную роль в сохранении самобытности национальной культуры и поддержке развития эстетического мышления.*

Ключевые слова: *массовая культура, современное общество, национальный образ жизни, урбанизация, технологический прогресс, влияние на сознание молодежи, эстетический вкус, индивидуализм, социальные ценности, глобальная коммуникация.*

MODERN POPULAR CULTURE: FORMATION FACTORS AND IMPACT ON NATIONAL LIFESTYLE

Annotation. *This article analyzes the factors of the formation of modern mass culture, its impact on the national lifestyle, and its socio-cultural role in society. Popular culture develops in conjunction with technological development, urbanization, the widespread availability of global communication tools, and economic and social changes. The study examines the impact of popular culture on the consciousness of youth, the middle class, and the general public, as well as its connection to aesthetic taste, individualism, consumerism, and national values. The negative and positive aspects of mass culture and its impact on intellectual and spiritual development are also discussed. The results of the article show that modern mass culture, along with shaping new values of life in society, plays an important role in preserving the uniqueness of national culture and supporting the development of aesthetic thinking.*

Keywords: *mass culture, modern society, national lifestyle, urbanization, technological development, influence on the consciousness of youth, aesthetic taste, individualism, social values, global communication.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy ommaviy madaniyat asarlari professional ijodkorlar tomonidan yaratiladi. Ular yaratgan asarlar murakkab badiiy timsollar, turli xil obrazlar, murakkab insoniy munosabatlarga ega bo'lmaydi, kishilar ichki ruhiy kechinmalarining eng nozik tomonlarini uyg'otishga va ularni fikrlashga da'vat etmaydi. Bugungi tezkor dunyoda yashayotgan kishilarda zamonaviy ommaviy san'at mazkur masalalar va tasavvurlar ustida ko'pam bosh qotirib o'tirishni talab qilmaydi [1]. Bugungi kishiga ko'proq tezkor dunyoning tezkor oqimi bilan birgalikda harakatlanayotgan ruhiyatini junbushga keltirishga, asardagi eng nozik ruhiy kechinmalarni boshdan kechirish va tasvirlanayotgan voqealar bilan birgalikda yashashdan ko'ra, o'zining tabiiy ehtiyojlarini, ya'ni biologik ehtiyojlar-intim ehtiyojlar va hayvoniy instinkt-

larini qo‘zg‘aydigan, muvaqqat maishiy hayot voqealari bilan yashashga undaydigan, shuningdek, yengil-yelpi asarlardagi qahramon bilan birgalikda yashashga, hayvoniylik kuch-qudratini ochiqdan-ochiq namoyon qilish va uni uyg‘otishga yordam beruvchi yuzaki ommaviy san’at asarlariga bo‘lgan ishtiyoqi ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Maks Xorkxaymer, D.Makdonald, Xose Orte-ga-i-Gassetning (“Madaniyatlar to‘qnashuvi”), Karl Yaspersning (“Dunyoning ruhiy vaziyati”), Jan Bodriyarning (“Zamonamiz fantomlari”), P.A.Sorokinning (“Inson, tamaddun, jamiyat”), Аврамов А.В. Смена научных парадигм в концептуализации феномена «массовая культура». (Автореф. дисс. … канд. филос. наук, Великий Новгород, 2007; Болховитинов Н.Н.Американская цивилизация как исторический феномен//Американская цивилизация как исторический феномен. Восприятие США в американской, западноевропейской и русской общественной мысли. Отв. ред. Н.Н.Болховитинов.-М., “Наука”, 2001).

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, obyektivlik, tizimlilik, sotsiologik so‘rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ommaviy madaniyat industrial va ayniqsa podindustrial jamiyat madaniyatining umumiy yig‘indisi bo‘lib, tezkor aloqa-axborot tizimi (radio, televideniya, internet, mobil aloqa vositalari)rivojlanishi hamda yuqori darajadagi urbanizatsiyalashuv va sanoatlashuv, individning begonalashuvi, o‘z manfaati uchun kurashning avj olishi bilan bog‘liq. Ommaviy madaniyat-muayyan jamiyat keng ommasi uchun mo‘ljallangan, aholi keng qatlamlari tomonidan iste’mol qilinadigan va ular hayot tarzining ma’lum bir qismini tashkil etuvchi madaniyatdir. Bugungi kunda ommaviy madaniyat sohasiga kishilarning turmush tarzini (maishiy hayotini), ommaviy o‘yin-kulgu (sport, zamonaviy pop musiqa, ommaviy adabiyot), ommaviy axborot vositalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Umuman olganda zamonaviy ommaviy madaniyat XX asrda o‘rta ta’bga ega bo‘lgan iste’molchilar, ya’ni ko‘proq o‘rta sinfga yaqin bo‘lgan kishilarning dam olishi, bo‘sh vaqtini ko‘ngilli o‘tkazishi uchun mo‘ljallangan madaniyat sifatida shakllangan. Ammo pul ishlash, boylik orttirish vositasi o‘laroq ommaviy madaniyat aholining eng quyi, didi o‘ta past va mompenlashgan qismini ham e’tiborga olmasligi mumkin emas edi. Ularga mo‘ljallanib ommaviy madaniyatning kich qismi shakllandi hamda “ommaviy madaniyat “ niqobi ostida pornografiya va zo‘rovonlikni ko‘rsatuvchi aksilmadaniyat vujudga keldi.

Ochiq, demokratik mamlakatlarda ommaviy madaniyat shaklan mafkuralashgan. Nodemokratik, ayniqsa, totalitar mamlakatlarda u ancha siyosiylashtirilgan va mafkuralashtirilgan hamda ommaviy targ‘ibot va tashviqot vositasiga aylantirilgan.

Industrial jamiyatning vujudga kelishi, ya’ni, industrial ommaviy madaniyatning vujudga kelishi bilan”ommaning” olimlari, “ommaning” yozuvchilari va “ommaning” shoirlari va “ommaning” rassmolari vujudga kelgan. Masalan, sobiq SSSR davrida bir xil fikrlaydigan, bir xil turmush kechiradigan, bir xil mehnat qiladigan ommani vujudga keltirish g‘oyasiga xizmat qiluvchi turli xil ijodkorlar shakllandi. Ularning asarlaridagi qahramonlar bir xil fikrlashlari, bir xil mehnat qilishlari va bir xil “axloq kodeksi”ga amal qilishlari bilan faxrlanishgan. Ularning asarlarida talqin qilingan omma bir xil tartib qoidaga amal qiladigan o‘ziga xos avlod.

Ommaviy madaniyat namunalari (ma’sulotlari)ni mafkuralashtirish va ommaning ruhiy kechinmalarini bir xillashtirishga qaratilgan xatti-harakatlar, nafaqat ijtimoiy hayot, balki jamiyatning siyosiy hayotini, kishilarning turmush kechmishlarini, siyosiy, axloqiy va badiiy qarashlarini ham u yoki bu darajada monopoliyalashtirishga sabab bo‘ldi. Faqat tomoshabop asarlarni yaratishga bo‘lgan intilish intim munosabatlarni, shafqatsizlik va zo‘rovonlikni ochiqdan ochiq tashviq qilishga, ya’ni umuminsoniy axloq mayorlariga dahl qilishga, insoniyat tomonidan nihoyatda e’zozlab kelingan his-tuyg‘ularni oyoq osti qilishga olib keldi.

Ommaviy madaniyat nafaqat kishilarning bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli o‘tkazishlariga, balki kishining charchog‘ini yozishga, bo‘sh vaqtini ko‘ngilli o‘tkazishigagina yordam berishi mumkin. Lekin ularning ma’naviy ehtiyojlari, bilim va tafakkurini boyitishga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondira olmaydi. Shuningdek, ommaviy madaniyat passiv, jamiyat va inson hayotida sodir bo‘layotgan voqealarga befarq bo‘lgan kishilarni shakllantiradi. Boshqacha qilib aytganda, ommaviy madaniyat inson ruhiyati va his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatib, kishilarni nafaqat tashqi olamda, balki jamiyat va kishilar hayotida sodir bo‘layotgan voqea hamda hodisalarga befarqlikni shakllantiradi, kishilarda odamovilik, qo‘rquv yoki, aksincha, agressiv munosabatni, shafqatsizlikni, gunoh ishlarni amalga oshirish va jinoyat qilishga rag‘batlantirmoqda.

Ommaviy madaniyat o‘zining ta’sir doirasiga ko‘pchilikni jalb qilishidan qat’iy nazar nafaqat milliy madaniyat, balki umuminsoniy madaniyatga ham qarshi turadi [2].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy "ommaviy madaniyat" ommaning ongini manipulyatsiya qilish, g'oyaviy-mafkuraviy va ma'naviy-ruhiy bir qolipga solishga qaratilgan madaniyatdir.

Ommaviy madaniyat bir xil qolip va obrazdagi qahramonlarning obrazini yaratdi. Natijada asosan yoshlarning ana shu qahramonlarga sig'inishga olib keldi. Sun'iy qahramonlar, ko'proq yoshlar sig'inadigan "yulduz"larni, shuningdek, ularga topinadigan fanatik olomon va ishqibozlarni, jazmanlar va ixlosmandlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy "ommaviy madaniyat" o'z davrining afsonasiga aylangan Muhammad Ali, Pele, Brus Li, Maykl Jekson, Madonna, Mayk Tayson, singari qahramonlarni yoshlar sig'inadigan sanamlarga aylantirdi.

Olomonda shunday xususiyat, ya'ni, intilish mavjudki, uning uchun barcha narsalar yoqimli bo'lsin. Shu boisdan ommani boshqarish yo'lidan boradigan ommaviy madaniyat ijodkorlari, odamlarning aynan ana shu intilishi, ruhiy holatini hisobga oladi. Ommaviy madaniyatni yaratuvchilar odamlar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan, uning ruhiyatini boshqarishga, kishilarni olomon ko'rinishiga olib kelishga yordam beruvchi har qanday vositalar, odamlar ongini junbushga keltiruvchi turli xil noaxloqiy xatti-harakatlar, ularni g'azablantiruvchi, o'z kuch-qudratini namoyish qilish va vahshiylashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi vositalarga alohida e'tibor beradi.

Yevropa industriyasi iste'mol buyumlarini bir xil shaklda ishlab chiqarishni avj oldirdi. Mazkur mahsulotlarda standartlarga moslik ustunlik qila boshladi. Moddiy ishlab chiqarishdagi bu holat ma'naviy boyliklar ishlab chiqarishga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Natijada Fransiya adabiyotida yangi yo'nalish – shovizm (narsa, buyumga o'chlik va tobelik) vujudga kelgan. Yevropada jamiyatning ommaviylashuvi va ayni paytda kishilarning o'zaro begonalashuvi jamoaviylikning individualizm bilan almashishiga, ya'ni, har bir kishining o'z manfaatini umumjamoa manfaatiga moslashtirishini emas, balki shaxsiy manfaatini umummanfaatdan ustun qo'yishga olib keldi. Endi umum fikri o'rniga yakka shaxsning fikri, intilishlari ustunlik qila boshladi [3].

Zamonaviy ommaviy madaniyat ta'siri ostida jamiyatdagi turli tuman ijtimoiy munosabatlar tijorat maqsadlariga asoslanib qoldi, ommaviy madaniyatning deyarli barcha ko'rinishlari tovar mahsulotlariga aylanib bo'ldi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi natijasida ma'naviy faoliyat turlari: kinofilmlar ishlab chiqarish, kitob chop qilish, musiqa asarlarini yaratish va boshqalar konveyr usulidagi ishlab chiqariladigan mahsulotga aylandi. Mahsulot ishlab chiqarishning ma'lum bir qismi badiiy madaniyat sohasiga ko'chdi. Bu esa badiiy ishlab chiqarishning ko'ngilochar xarakter kasb etishiga sabab bo'ldi. Aslida ham, kinofilmlar ishlab chiqarish, tasviriy san'at asarlarini yaratish, badiiy adabiyot va musiqa san'ati sohasidagi ijodkorlik, badiiy madaniyatning ko'pgina sohalarining ortida ko'proq foyda olish maqsadi yotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ommaviy madaniyat jamiyatda yangi bir qatlam – o'rta sinfning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. O'rta sinf postindustrial jamiyatning asosiy negizi – o'zagiga aylanadi.

O'rta sinfda, bir tomondan, muvaffaqiyatga erishish, boshqa tomondan esa har bir narsadan foyda olishga bo'lgan intilish kuchli bo'ladi. Mazkur holatni kambag'al oiladan chiqqan qahramonlarning milliarderlarga aylanishi, boshqa mamlakatdan musofir bo'lib kelgan kishining taniqli yulduzga aylanishi to'g'risidagi ommaviy madaniyat mahsulotlari orqali targ'ib qilinishida ko'rishimiz mumkin. Ikkinchidan, ommaviy madaniyat o'rta sinf vakillarining yirik ko'chmas mulkka egaligi to'g'risidagi shov-shuv va mish-mishlarni tarqatishning asosiy vostitasiga aylandi. Ularning zamonaviy avtomobillarni sotib olganligi, Yevropa, Amerika va boshqa qit'alardagi mashhur qal'alarga, villalarga egalik qilishi, dunyoning mashhur orollaridagi so'lim joylarni sotib ola boshlaganligi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida turli tuman xabarlar va mish-mishlar tarqatilmoqda. Natijada kishilarda, ayniqsa, yoshlarda har bir narsaga buyum sifatida qarash, har bir narsadan faqat foyda olish, mashhur san'at asarlariga madaniy boylik yoki qadriyat sifatida qarash emas, balki, ularni faqat mol-mulk va boylik sifatida qabul qilish tafakkuri shakllanadi. Uchinchidan, o'rta sinf vakilida jamoaviylik emas, balki individualizm, ya'ni, "faqat o'zim bo'lsam bo'ldi, boshqalar bilan nima ishim bor", "o'zim chiqqan tepalik oman bo'lsa bo'ldi" degan tafakkur qaror topdi. Jamiyat va o'zi bilan yonma-yon yashagan kishilarning taqdiriga befarqlik shakllanib, hatto, nafaqat, qarindosh-urug', balki o'z oila a'zolariga bo'lgan munosabatlarida ham shaxsiy manfaat birinchi o'ringa chiqmoqda, ular o'zlarining zimmasidagi ijtimoiy ma'suliyatni unutmoqdalar. Albatta, zamonaviy jamiyatda o'z imkoniyatlarini ishga solish, beshafqat raqobatda muvafaqqiyatga erishish kabi fazilatlarga intilish yomon narsa emas. Lekin mazkur holat insonni inson sifatidagi o'zligini anglashi va umumjamiyat manfaatlari uchun kurashishdan chalg'itadi, ularga befarq munosabatda bo'lishga olib keladi. Jamiyat hayotidan uzoqlashtiradi, individulaizmni kuchaytiradi, faqat o'zi uchun yashashga olib keladi. Umumjamoaviylik hissi individualizmga, insoniylik insoniyatga qarshi kurashga olib boradi.

Bizningcha, ommaviy madaniyatning keng ko'lamda yoyilishida nafaqat industrial ishlab chiqarish va uni tarqatish tizimining zamonaviylashuvi, balki kishilarning, ayniqsa, yoshlarning yangidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni havas bilan iste'mol qilishi, ya'ni, unga egalik qilish hissining yildan yilga kuchayib borishi, undan foydalanishning "moda"ga kundan kunga o'sib borishi hamda kishilarning ana shu "moda"larga o'chligi sabab bo'lgan. Go'yo, kim "moda"ga aylangan ommaviy madaniyat mahsulotlariga egalik qilsa, ya'ni "moda"ga amal qilsa, u madaniyatli deb hisoblangan. Keyinchalik, barchaning ommaviy ravishda ana shu moda asosida yashashi ilg'orlik, ya'ni madaniyatlilik belgisi hisoblangan. Aks holda, u zamondan orqada qolgan – madaniyatsiz deb qabul qilingan. Ana shu aqidadan kelib chiqadigan bo'lsak, ommaviy madaniyat bu ommaviy "moda", ya'ni, yangicha modani niyat qilish, unga erishish va uni ommaviylashtirish demakdir. Moda esa kimningdir foydasini ko'zlagan holda ommaviylashtiriladi. Shu boisdan ham zamonaviy bozor qonuniyatlari zamonaviy ommaviy madaniy mahsulotlarni keng tarqatishdan manfaatdor [4;20–22-b.].

Demak, ommaviy madaniyat tarafdorlari insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi, ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni ommalashtirishga harakat qiladilar. Ularning asosiy maqsadi – milliy madaniyatlarning noyob belgilarini minimallashtirib ularni bir qolipga tiqish va kishilarning, ayniqsa, yoshlarning "narsalarga (buyumlarga) qulligi"ni rag'batlantirishdir. Amerikalik mashhur adib R.Bredberi ta'biri bilan aytganda, ommaviy madaniyat maktabi+dan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi avtomabil, televizor, muzlatgichga ega bo'lishdir.

Bugungi kunda intim munosabatlar, shahvatparastlik, zo'rovonlik, xudbinlik, "Kim kuchli bo'lsa-o'sha haq" degan yovvoyilik qonunlarini badiiylashtirish ommaviy madaniyat tomonidan keng targ'ib etilmoqda.

G'arb davlatlarining ayrimlarida ommaviy madaniyat tarqatayotgan "pornografiya" (sharmsizlik, behayolik) hamda sadizm (shafqatsizlik) targ'iboti yo'liga qo'yilayotgan har qanday g'ovlar sud qarorlari bilan birin-ketin olib tashlanmoqda. Hatto, AQSH maktablarida "Yangi rok" musiqalari o'quv dasturlariga kiritilmoqda.

Aslida, san'at asarlarini yaratish konveyr usulida ishlab chiqarishni emas, balki har bir ijodkordan yuqori iqtidorni talab qiladi. Haqiqiy san'at ijodkorning ruhiy kechinmalari chig'irig'idan o'tib, tabiat, jamiyat va insoniyatga bo'lgan munosabalarining hosilasi sifatida vujudga keladi.

Ommaviy madaniyatning ayrim janrlari haqiqiy san'at asarlaridan ancha uzoqlashib ketdi. Ular ko'proq ommani, asosan yoshlarni junbushga keltiruvchi, noinsoniy ruhiy holatlarni qo'zg'aydigan, ruhiy kechinmalarga ta'sir ko'rsatuvchi ohanglar, xatti-harakatlar va bitiklarni, kliplarni texnik vositalar orqali tarqatishga asoslanadi.

Xulosa va takliflar. An'anaviy madaniyatda esa etnik xususiyatlar – mazmunan va shaklan boshqalardan ajralib turish, muayyan xalqning tarixiga, turmush tarziga, maishiy munosabatlariga aloqadorlik kuchli. Uni tushunish boshqa xalqlar uchun, ayniqsa turmush tarzi, yashash sharoitlari, diniy e'tiqodi farq qiladigan xalqlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari, an'anaviy madaniyatni boshqa xalqlar qabul qilish uchun ushbu madaniyat yaratilgan tilni, ular asosida yotgan folklorni, urf-odatlarni, qadriyatlar tizimini bilish talab etiladi. Shu sababli an'anaviy madaniyatning etnik xususiyatlari kuchliligi tufayli dunyo miqyosida kam tarqaladi. Faqat qo'shni bo'lib yashaydigan xalqlar orasida o'zaro madaniy aloqalar psixologiyasi, maishiy turmushi yaqinligi sababli ko'proq tarqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Де Токвиль А. Демократия в Америке. М., "Прогресс", 1994.

(2). Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М., "Academia", 2004.

(3). "QDU xabarlari", 2013, 3-son, 63-bet.

(4). Primov B. Axborot oqimining axloqiy qadriyatlarga ta'siri. "Jamiyat va boshqaruv", 2011, 2, 20–22-betlar.

Usmanov Muxriddin Abdimuratovich (O'zMU doktoranti; e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com)

VOQELIKNING QAYTA IDROK ETILISHIDA TAFAKKUR USLUBI TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Maqolada virtual obrazlar sharoitida voqelikni idrok etish jarayonining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli muhitning inson ongiga, bilish jarayonlariga va tafakkur uslubiga ko'rsatadigan ta'siri fenomenologik, gnoseologik hamda sinergetik yondashuvlar asosida yoritilgan. Ayniqsa, virtual reallik, media tasvirlar va algoritmik tizimlar orqali shakllanayotgan yangi epistemologik paradigma ochib beriladi. Yevropa va Osiyo jamiyatlari misolida tafakkur transformatsiyasining*